



UDK:30.428

Atabay JUMANIYAZOV,
Urganch davlat universiteti professori, f.f.n
Nafisa POLVANOV,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shixnazarmadiyrov@gmail.com

Prof., Z. Teshaboyeva taqrizi asosida

TILDA QO'SHMA SO'ZLARNING MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada qo'shma so'zlarning mohiyatan nima ekanligi, ularning so'z birikmalaridan farqi turli misollar bilan tushuntirib o'tilgan. O'zbek tilidagi qo'shma so'zlarga berilgan ta'riflar va ularning orfografiyasidagi ba'zi qoidalarga shaxsiy, tanqidiy fikrlar bildirilib, misollar orqali dalillangan.

Kalit so'zlar: Qo'shma so'z, so'z birikmasi, leksema, intuitiv, anlaut.

СУЩНОСТЬ СЛОЖНЫХ СЛОВ В ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье разъясняется сущность сложных слов, а также их отличие от словосочетаний на основе различных примеров. Даются определения сложных слов в узбекском языке и высказываются личные и критические мнения об орфографических нормах, что аргументировано на конкретных примерах.

Ключевые слова: Сложное слово, словосочетание, лексема, интуитивный, анлаут.

THE NATURE OF COMPOUND WORDS IN LANGUAGE

Annotation

This article explains the essence of compound words and their differences from word combinations through various examples. Definitions of compound words in the Uzbek language are provided, along with personal and critical views on certain orthographic rules, supported by illustrative examples.

Key words: Compound word, word combination, lexeme, intuitive, anlaut.

Кирриш. Ma'lumki, inson o'z nutqi mobaynida til birliklaridan biri hisoblangan qo'shma so'zlardan faol foydalanadi, foydalanish esa, barcha til birliklarini nutqda qo'llanilishi kabi, ko'pincha beixtiyor kechadi. Yohud, odam gapirar ekan, hozir sodda so'z, keyin esa qo'shma so'z qo'llayman deb tafakkuridan o'tkazishni odatda hayoliga ham keltirmaydi. Buning sababi shuki, so'zlovchi muloqot davomida o'z fikrini bildirar ekan, tilimizda va o'z lug'at boyligida mavjud bo'lgan va ayni paytda vaziyatga mos keluvchi til birliklaridan (qo'shma so'zlardan ham) intuitiv foydalanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, muloqotda qo'llayotgan so'zlarning qo'shma so'z yoki boshqa til birligi ekanligiga, so'zlarning yasallishiga, ularning o'zaro ma'no munosabatiga kirishib qay ravishda shakllanishiga katta e'tibor berib o'tirmaydi. Bu holat so'z birikmalari va qo'shma so'zlardan foydalanish jarayonida ayniqsa seziladi. Qizig'i shundaki, muloqot sohiblarining nutqida uchraydigan so'zni, yasama so'zni farqlash oson kechadi, biroq, (ayniqsa, og'zaki nutqda) so'z birikmalari va qo'shma so'zlarni o'zaro ajratib tushunish muayyan murakkabliklarga olib keladi. Narsa va hodisa so'z birikmalarimi yoki qo'shma so'zlar vositasida nomlanilyaptimi, bilib bo'lmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri shuki, nutq sohiblari bu ikkita til birligining leksik va grammatik ma'no farqlanishiga astoydil e'tibor bermasligi, berilayotgan xabarda nazdda tutilgan va ishora qilinyotgan narsa va hodisalarni aniq ifodalash uchun qaysi bir til birligi, so'z birikmasimi yoki

qo'shma so'zmi, to'g'ri vositachilik qila olishini o'ylab o'tirmaydi. Suhbat ishtirokchilarining har biri masalani o'z mushohadasi nuqtai nazaridan turib tushunadilar va fikr almashish samarasi ham shunga loyiq bo'ladi. So'z birikmalari va qo'shma so'zlar farqlanmasdan, birining o'rniga ikkinchisi almashinib qo'llanilishi natijasida muloqot maqsadga muvofiq kechmaydi, aytilmoqchi bo'lgan narsa aytilmaydi, narsa narsadek nomlanilmaydi va muayyan ma'noda suhbatdosh chalg'iydi. Shu ma'noda, mazkur faslda milliy tilimizda qo'shma so'zlarning mohiyati, ulardan nutqimizda nima maqsadda foydalanish borasida ayrim (shaxsiy) fikr-mulohazalar bildirishga harakat qilamiz. Bilamizki, obyektiv borliqdagi yakka narsa va hodisalar sodda so'zlar(oy-moon, shamol-wind) bilan, ikkinchi bir narsaning aralashuvi, yaralishidagi bevosita ishtiroki yoki ishtirokisiz (oyli-moony, shamolli-windy) yasalgan, yasama so'zlar yoki ikki va undan ortiq narsa va hodisani birlashuvi(qo'shiluvi)dan tarkib topgan predmetlarni nomlash uchun qo'shma so'zlardan foydalaniladi, masalan: qum-sand va soat-watch alohida narsalar bo'lib, tarkibi shu ikki predmetdan tashkil topgan va samara sifatida vaqtini bildiruvchi buyumni ifodalash uchun qumsoat-sandwatch qo'shma so'zini yasallishiga asos bo'ladi. Obyektiv borliqdagi ikki va bir-biriga bevosita aloqasi bo'lmagan, ijtimoiy turmushda har qaysisi alohida mavjud narsa(qum va soat)dan uchinchi bir yangi narsa qo'shilib(qumsoat – soat turi) yasalganligi va uni atash uchun esa tarkib egalari nomlari bilan

kifoyalaniadi. Yangi bir atama izlanilmaydi, lekin yangi bir buyum nomlaniladi, bor so'zlarni qo'shib(yoki ajratib) yozish bilan til boyidi, rivojlanadi, ifoda qudrati oshadi. Biroq, til egalarining hammasi iste'molda, ayniqsa, maktabda kimyo, fizika laboratoriyalarining tarkibiy qismi sifatida, faol bo'lgan mazkur buyum va uning nomini og'zaki nutqda mayli - eshtaveramiz, biroq yozma nutqda uning qanday ifodalanishini, to'g'ri imlo shaklini bilavermaydi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, har kim bilganicha yozadi, bilganicha tushunadi. Hatto, milliy tilimizning fundamental ishlangan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham bu leksemaning ham ajratib, ham qo'shib yozilgan variantlari tavsiya qilinadi, farqlari izohlanilmaydi. Iste'molchi bu til birliklarining qaysi biridan qachon foydalanishi, qaysi holatda ularning imlo jihatidan to'g'riligi – morfologiyasi va qachon ma'no nuqtai nazaridan teran bo'lishi – stilistikasi kabi masalalar ochiq qoladi. Mazkur muammoning qiziquvchi ixtiyoriga havola qilinganligini ta'kidlash uchun, iqtibosni aynan keltiramiz:

"Qum soat, qumsoat. Muayyan miqdordagi qumning bir yopiq idishdan ikkinchisiga tor teshik orqali tushishiga qarab vaqtni o'lchovchi soat. O'rta asrlarda bandli qum soatlar urf edi. Fan va turmush [1]". Ayrim qo'shma so'z yoki so'z birikmalari izohida tahririyat ulardan qaysi biri ma'qul (noma'qul), qaysi biri to'g'ri (noto'g'ri) ekanliklari borasida muayyan fikrlar bildiradi, biroq nima uchun to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi qayd qilinmaydi.

Analog misol sifatida quyidagi leksema izohlanishini keltiramiz: "Og'iroyoq (to'g'risi – og'ir oyoq) s. t. Homilador. Tog'ay og'iroyoq xotinlarga xos sustkashlik bilan o'choq boshida kuymalanib yurgan Marhamatga e'tibor bermadi. Yoshlik [2]."

Keltirilgan misollar va yana ayrim imlo va talaffuzda nafaqat shaklan balki mazmunan (tovushlar tarkibi) farqlanuvchi (nafsambir - nafsilamr) ayrim qo'shma so'zlar tadqiqot jarayonida uchradiki, ular bizda bunday holatlarga katta qiziqish uyg'otdi va ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy o'rganishga undadi. Eng asosiy turtki bo'lgan narsa tilimizda faol, ayniqsa kitobiy uslubda keng qo'llaniladigan "so'z boshi" iborasining "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning (1981-yil) 2 jildli nashrida ajratib (so'z birikmasi sifatida) va ushbu lug'atning kengaytirilgan 5 jildli 2006-yilgi nashrida qo'shib (qo'shma so'z sifatida) qo'llanilgani bo'ldi. Binobarin, o'zbek tili va tilshunosligi tarixida ulkan ilmiy, ijtimoiy hodisa hisoblangan, hayotimizda yuksak amaliy, madaniy-ma'rifiy qimmatga ega bo'lgan, o'zbek leksikologiyasi va leksikografiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan, milliy tilimizda nisbatan keng iste'molda bo'lgan 80 mingdan ziyod so'z va so'z birikmalari imlo, talaffuz va ma'no tomonlarini qayd qilgan mazkur akademik qomus nazdimizdagi iborani tilimizdagi aytilish va yozilish xususiyatlariga ikki joyda ikki xil yondashgan. Jildlar debochasi, muqaddimasi(sarlavhasi)ni bir safar qo'shib, ikkinchisida esa ajratib yozilgan. Bir qarashda milliy tilimizning imlo qoidalariga e'tiborsizlikday tuyuladigan yoki bo'lmasa matbaa hodimlari tomonidan yo'l qo'yilgan texnik qusur natijasiga o'xshab ko'rinadigan bu real fakt bizni masala boisini kengroq o'rganishga sabab bo'ldi. Ma'lumki, "so'z boshi" leksemasi istilohda ikki ma'noga ega:

1. So'zboshi - ya'ni muayyan bir so'z alohida til birligi sifatida olinib, uning formal tomoni, so'z tarkibidagi birinchi harflar (tovushlar) inobatga olinib, boshda turgan harf nazarda tutilgan holatni anglatadi. Bunda ayrim bir

so'z boshida (anlaut) turgan tovush yoki harf tushuniladi. Misol uchun, 'kitob' so'zining boshida qaysi harf turibdi deb so'ralsa 'k' harfi yoki mazkur so'z qaysi tovush bilan boshlanadi desa 'k' tovushi deb javob beriladi va shunga loyiq imlo va talaffuzda tahlil qilinishi ta'kidlanadi, yohud "anlaut" 'k' ga tengdir.

2. So'zboshi - bunda muayyan bir so'zning formal (shakl) tomoni emas uning aktual (muhim ma'no) tomoni e'tiborga olinadi va mazkur iboradagi so'z leksemasining 'gap', 'nutq', 'fikir', 'ma'lumot' ma'nolari nazarda tutiladi hamda ibora ostida 'gap boshi', 'aytilmoqchi ma'lumot boshi' deb tushunish maqsadga muvofiqdir. Shu asnoda "O'zbek tili izohli lug'ati"ning birinchi nashrida 'so'z boshi' birikmasining ajratib(ayrim-ayrim) yozilishini qomusda berilayotgan barcha 'ma'lumotlar boshi' deb tushunilishini taqozo qiladi.

Endi mazkur iboraning qo'shib "so'zboshi" shaklida kelishiga to'xtaladigan bo'lsak, bunda qo'shma so'zlarning tildagi tabiati (yasalishi) va mohiyati(muloqotdagi ahamiyati)ni nazarda tutish zarur. Zero, endi bu til birligining qo'shma so'z sifatidagi ma'nosi birikma holatidagi ma'nolaridan farq qiladi va u endi qomusning tarkibiy qismlaridan biriga aylanib muqaddima, 'prolog' ma'nolarini anglatadi hamda asar mundarijasining boshlanish bo'limini nomlaydi. Natijada 'so'zboshi' nomi ostida qomus boshida berilayotgan ma'lumotlar tushuniladi. Endi u mundarijadagi fasl, boblarning birining nomiga aylanadi. Masalan, fikrimizni quvvatlash uchun analog misol keltiramiz: 'issiq xona' iborasi ostida muayyan bir xonaning issiq ekanligi tushunilsa, 'issiqxona' qo'shma so'zi ostida 'teplitsa' tushuniladi. yohud issiqxonalarining bir (o'simlik va mevalarni sovuq urishidan saqlab parvarish qilish imkoniyatini beruvchi) turi nomlaniladi.

E'tiborlisi shundaki, bu ikkala(teplitsa-issiqxona) leksema ham izohli lug'atimizda bizning yuqoridagi fikrimizga monand sharhlanilgan: "Teplitsa [r. teplo – "issiq, issiqlik" s. dan yasalgan ot] q. issiqxona 2. Bu joydan kolxoz klubi, GESi, teplitsadan tortib elektr tegirmonigacha ko'rinar ekan. A. Muhiddin. Oshnalar [3]."

Izohda o'zak so'zga sharh beriladi, "(i)tsa" so'z yasovchi qo'shimchasi izohlanilmagan. Mazkur qo'shimcha orqali rus tilida o'zak so'z ma'nosi anglatadigan faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxs nomlaniladi. Uning qarang deb ishora qilingan issiqxona muqobilining o'zbek tilida ikki ma'nosi bo'rligi qayd qilingan: "Issiqxona 1. Hammomning terlatadigan darajada isitiladigan alohida xonasi. Yaqinginda yuz va sochlarini silab esgan shabada hozir susayib, havo hammomning issiqxonasidagiday dim bo'lib qoldi. H. Nazir, So'nmas chaqmoqlar [4]."

O'zbek so'zlashuv tilida "issiqxona"ning mazkur ma'nosi uchun rus tilidan qabul qilingan "parnoy" so'zi ishlatiladi.

"2. O'simlik yoki hayvonlarni sovuq vaqtda parvarishlash uchun quyosh nuri bilan isitiladigan maxsus oynavon qurilma, bino. Qo'shni mahalladagi issiqxona egasi oltmish ming so'm oylik bermoqchiligini aytdi. Gazetadan [4]."

Mazkur izohda ham g'alazlik bor, zero ijtimoiy turmushda quyosh nuri bilan isitiladigan issiqxonalar deyarli yo'q, borlari esa elektr toki, gaz, ko'mir, o'tin, texnika rivojlanib borayotganligi natijasida quyosh panellari bilan isitiladi.

O'ylaymizki, bizni mazkur masalaga undagan narsani yetarlicha sharhladik. Biroq fikrimizni ilmiyroq sharhlash uchun bo'lgan harakat, bizni tilshunoslikda so'z birikmalari va qo'shma so'zlar bilan bog'liq ko'p adabiyotlarni o'rganishimizni taqozo qildi. Adabiyotlarni

o'rganish esa shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilshunosligida keyingi davrda qo'shma so'zlar masalasiga e'tibor sezilarli darajada kuchaygan, bu masala nashr etilayotgan har bir o'zbek tili grammatikasidagina emas, balki maxsus ishlarda ham atoflicha o'rganilmoqda.

Qo'shma so'zlarga bag'ishlangan maxsus ishlarda komponentlarning leksik-grammatik xarakteristikasi nuqtai nazaridan hamda struktura jihatidan qo'shma so'zlar ancha chuqur o'rganilgan, ayrim hollarda komponentlarning o'zaro aloqalari ham ochib berilgan, biroq ularning barchasida avvalo mazkur til birliklariga berilgan ta'riflarda, qolaversa, masala mohiyatini tushunib olish va ifodalashda anchagina kamchilik va qusurlar bor. Atoqli tilshunolarimiz A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, B.Madaliyev va A.Madvaliyevlar ham bu borada fikrimizni tasdiqlashadi "...qo'shma so'zlarni o'rganish hali nihoyasiga yetmagan, bu jarayonda chalkashlik va nuqsonlarga yo'l qo'yilmoqda. Qo'shma so'zlarga bag'ishlangan ishlarda ularning sodda so'zlardan va so'z birikmalaridan farqi hali yetarlicha ochib berilmagan «bu masalada turli mualliflarning qarashlari turlichadir. Bunday har xilliklar, chalkashliklar ayni qo'shma so'z terminini turlicha tushunish natijasida kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin [5].” Mazkur fikrni yanada soddaroq, yanada oddiyroq va xalq tiliga yaqin ifodalamoqchi bo'linsa mashhur o'zbek shoiri E.Vohidovdan afzalroq ifodalash qiyin. Shu ma'noda shoirning fikrini aynan keltiramiz: “Biz o'z tilimizdagi soddalik va anqlik qadriga yetishimiz kerak. Boshqa tillarga taqlid qilib so'z yasash qoidasini ilmiy tahrirdan o'tkazishga hojat yo'q. Non do'koni, qo'l soati, qor odami, ko'z yoshi yasama so'zlar. Oddiy xalq qo'l soat, non do'kon, qor odam, ko'z yosh deydi va o'zbek tili qoidasiga rioya qiladi. Qoida yaratuvchilardan ko'ra to'g'riroq aytadi. Axir bilak uzugi, qo'l qopi, yer yong'og'i demaymiz-ku. Hamma birday bilaguzuk, qo'lqop, yeryong'oq deydi [6].” Misollardan ko'rinib turibdiki, shoir “non do'koni, qo'l soati” so'z birikmalarini yasama so'zlar va ularni xalqimiz non do'kon, qo'l soat deb nomlanishini oddiy o'zbek tili qoidasi deb ta'riflaydi, bizning fikrimizcha bu bilan mazkur leksemalarni nondo'kon, qo'lsoat deb qo'shma so'z imlo hamda talaffuziga ishora etadi va juda to'g'ri qiladi. Ayrim tilshunolarimizning bu boradagi fikr mulohazalarida esa bir yoqlamalik yaqqol ko'rinadi, misollar keltiramiz: “Qo'shma so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topib, bitta so'roqqa javob bo'ladi. Otquloq, yurtboshi, tinchliksevar, xushxat, shirinzabon, kungaboqar. Qo'shma so'zlar tilning tarixiy taraqqiyoti davomida ikki va undan ortiq so'zlarning birikuvidan tashkil topgan, lekin hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtai nazaridan bu birikuv o'z kuchini yo'qotib, bir so'zga aylanib qolgan bo'ladi. Shuning uchun qo'shma so'z tarkibida alohida so'z bo'lib ko'ringan qismlar (kunga-boqar, beshik-tervatar, namoz-shom-gul) hozirgi o'zbek tilida so'zlik xususiyatini yo'qotgan, bir so'z tarkibidagi ma'noli qism (morfemalar) sanaladi [7]. Mazkur mulohazalardagi qo'shma so'zlar birikuvi o'z kuchini yo'qotishi, ularning bir so'zga aylanishi, komponentlarning so'zlik xususiyatini yo'qotishi, morfemalarga aylanishi kabi fikrlar isbotlanilmagan. Ular bu masalaga qiziquvchilarda muayyan savollar uyg'otadi. Nima uchun ikki so'z birikib o'z kuchini yo'qotar ekan? Axir keltirilgan misollarda birikuv so'z kuchini oshiryaptiku, hatto ular birikuvidan uchinchi bir so'z tug'ilyapti-ku! Ikkinchi savol: So'z ham o'z kuchini yo'qotishi mumkinmi? Axir ular tilning ifoda qudratini (kuchini) oshirish uchun yaratilgan-ku! Morfema (o'zak

morfema yoki affiksoidlar) so'zga aylanishi mumkin, lekin so'z morfemaga aylanganligi qayerda bor? Yuqorida bu savollarga qoniqarli javob yo'q. Undan tashqari, ushbu risolada qo'shma so'zlar ikki xil bo'ladi deb ta'kidlanilgan va quyidagi guruhlarga bo'lingan: “qo'shma so'zlar yozilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar

2. Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar [7] “

Mazkur bo'linish xususiyatiga aniqroq razm solgan istagan bir tilga qiziquvchi qo'shma (qo'shilganlikni ikki marta ta'kidlovchi so'z) yohud avvalo qo'shmoq, keyin esa qo'shilishni ta'kidlovchi –ma yuklamasi vositasida yasalganini sezadi. Demak, ikki so'zning tabiatan ham, mohiyatan ham qo'shilganligini aniq mushohada qiladi va hosila sifatida qo'shib yozilgan ikki yoki undan ortiq so'zni tasavvur qiladi. Uning mushohadasida “qo'shilganlik”(qo'shma so'z)ning ajralganlik(so'z birikmasi) ham bo'lish imkoniyati borligining ta'kidlanishi absurd tushuniladi, zero bu sharh oddiy aqlga ham sig'maydi. Savol tug'ilaveradi, o'zi qo'shma so'z bo'lsa nimaga u ajralgan bo'lishi kerak?! Mazkur savolga esa javob tariqasida muayyan shartlar ko'rsatiladi. Shartlarga mantiqan yondashiladigan bo'lsa, bizning fikrimizcha ularda ham muayyan qusurlar bor.

Biz bildirgan fikr-mulohazalar qo'shma so'zlar imlosi bo'yicha hamkasblarimizning tavsiya va xulosalariga tanqidiy fikr bildirish yoki ulardan kamchilik izlash emas, balki milliy tilimizda qo'shma so'zlar yasalishi va ularning imlosi bo'yicha shaxsiy fikrlarimizni ilmiy jamoatchilik o'rtasiga havola qilishdir. Barchaga ma'lum, tilimizda faol qo'llanilayotgan hamma qo'shma so'zlar bir vaqtlari so'z birikmalari bo'lgan va keyinchalik qo'shma so'zga aylangan. Ular kundalik hayotda keng qo'llanilishi, birikma tarkibidagi so'zlarning o'zaro ma'no munosabatidagi o'zgarishlar ham mazkur so'zlar yordamida uchinchi bir narsa va hodisani nomlash imkoniyatlarining yuzaga kelishi va kelayotgani, so'z birikmalarini asta sekin tarixiyadrijiy asosda hamda ayrim holatlarda ma'no ko'chishlari sababli qo'shma so'zlarga aylanishiga zamin yaratgan. Masalan, avvalo, xalqimiz “mol” saqlay boshlagan keyin esa ularni issiq-sovuqdan himoya qilish uchun himoya choralari “xona” qurishgan. Biroq, kundalik hayotimiz uchun zarur bo'lgan “xona”lar ko'p (oshxona, yotoqxona, mehmonxona, nonvoyxona, kutubxona, otxona, qo'yxona), shu sabab ularning qanaqa xona ekanligini bildirish uchun va boshqa xonalardan ajratish uchun aniqlovchi komponent qo'yilgan. Analog misol sifatida nomalarning ham ko'pligini keltirishimiz mumkin (taklifnoma, bildirishnoma, murojaatnoma, tabriknoma va b.). Mazkur qo'shma so'zlar komponentlari o'z ma'nolarini saqlab qolishadi, shu bilan birgalikda noma turlarini farqlashadi. Zero, har “noma”ning ko'rsatuvchi boshqa bir aniq narsasi yoki hodisasi bor. Xona va noma bilan yasalgan qo'shma so'zlarni tariximiz mahsuli desak, tilimizda hozirgi kunlarda ham ayrim so'z birikmalari qo'shma so'zga aylanyapti. Fikrimizni quvvatlash maqsadida, “qora non”, “qizil olma” birikmalarida rang inobatga olinadigan bo'lsa, ular vositasida yaratilgan “qoranon” va “qizilolma” qo'shma so'zlarida nonning turi, mevaning navi e'tiborda turadi. Misol keltirsak, - Bu yil bozorda qizil olmaning bahosi yuqori bo'ldi va dehqonlar qizilolma nihollashni kuchaytirdilar. Misoldan yaqqol ko'rinib turibdiki, olmaning rangini bildirish uchun ajratib, olmaning navini bildirish uchun esa qo'shib yozilish, gap orqali berilayotgan ma'lumotga anqlik kiritadi. Birikma tarkibidagi so'zlarning qo'shma so'zga aylanishida ma'no

ko'chishi ta'sirini ko'rsatadigan misollar ham keltiramiz: "Oqsoch"ning xizmatkor, cho'ri ma'nosi, "oqsuyak"ning aslzoda ma'nosi, "og'iroyoq"ning homilador ma'nosi, "qorako'z"ning farzand, yaqin ko'rilgan inson ma'nolaridagi metonimik(bahuvrihi) xususiyatlar qo'shma so'zlar uchun asos bo'ladi. Og'zaki nutqdan misol keltiramiz: - Farrosh kokilida birorta ham oq soch yo'q, sochlari qop-qora. Nimaga endi uni "oqsoch" deb nomlashadi, tushunarsiz hol.

Maqolani xulosalab, shu fikrni mazkur masalaga qiziquvchilar diqqatiga havola qilmoqchi edikki, qo'shma so'zlarning o'zbek tilidagi imlosi - qo'shib yoki ajratib yozish, yoki so'z birikmalaridan qo'shma so'z yasash shartlari asosan quyidagi til hodisasiga bog'liq - birikma tarkibidagi so'zlar yoki istagan bir ikki so'z o'zaro grammatik va leksik ma'no (o'z va ko'chma) munosabatiga kirib uchinchi bir narsa hodisani anglatsa

qo'shib yozilgani ma'qul. Shu tavsiya asosida ish tutilsa yuqorida ko'rsatilgan 12 ta shartni nomlab o'tirishga hojat qolmaydi, biz tavsiya qilayotgan qoida, muayyan ma'noda, yuqoridagi barcha shartlar talabiga mos kelaveradi. Diktant yozayotgan o'quvchi imloda xato qilmaslik uchun yuqorida nomlangan hamma shartlarni eslab o'tirmaydi, faqat yonma-yon kelayotgan ikki so'z ma'no jihatidan qo'shib, uchinchi bir narsani anglatadimi yoki yo'qmi, shuni farqlay olsa yetarli bo'ladi. Farqlash uchun, masalan, "qizil olma" iborasidan "Olma qizildir." degan gap tuzilsa va bu gap olma qizilligi(ranggi)ni xulosalab, tasdiqlab tursa, unga so'z birikmasi sifatida qarash lozim. "Qizilolma" leksemasidan "Olma qizildir." degan gap tuzib bo'lmasa va bu til birligi orqali endi olmaning ranggi emas navi ifodalansa, uning aytilishi va yozilishi qo'shma so'z sifatida qayd qilinishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbekiston nashriyoti, Toshkent -2020, 5-jild, 376-bet
2. O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbekiston nashriyoti, Toshkent -2020, 3-jild, 190-bet
3. O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbekiston nashriyoti, Toshkent -2020, 4-jild, 68-bet
4. O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbekiston nashriyoti, Toshkent -2020, 2-jild, 235-bet
5. Hojiyev A., Sh.Rahmatullayev, B.Madaliyev va A.Madvaliyev – "O'zbek terminologiyasi va leksikologiyasi masalalari", Toshkent-2017, 57-bet.
6. Vohidov E.– "So'z latofati", Toshkent 2018, 56-bet
7. Erkaboyeva N. "O'zbek tilida ma'ruzalar to'plami", Toshkent: Akademyashr -2015, 66-67-betlar